



ONA TILI VA ADABIYOT FANLARDIADA DARS O'TISHDA QO'LLANILADIGAN FINLANDIYA METODLARI

O'rinova Dildora Xudoynazarovna

Kitob tumani 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolda ona tili adabiyoti darslarida Finlandiya metodlarini o'rgatish hamda o'quvchilarga imlo qoidalarini o'rgatish, xususan, kakografiya yo'li, ya'ni maqsadli ravishda xatolarga yo'l qo'yilgan matnni o'quvchilarga tuzatish usuli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: imlo, imlo qoidalari, mashqlar, to'g'rilash, kakografiya usuli.

KIRISH

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog'idan boshlab qunt bilan o'qish, ilm va hunar o'rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o'ziga xos ta'lim tizimi yaratildi: "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi. Ularda ta'limning boshqa sohalari qatori ona tili ta'limiga ham alohida o'rin ajratilgan.

Ona tili o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasini, uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi.

TADQIQOT VA METODOLOGIYA

Ma'lumki, har bir milliy til o'zida moddiy olamni aynan, adyektivat aks ettirishdan tashqari ruhiy olamni, qayg'u-alamlari-yu shodliklarini ham o'rinda tugal ifodalaydi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Keyingi yillarda ona tilimizni asrab avaylash, davlat tili sifatidagi maqomini ko'tarish, jahon miqyosida o'rganilishini rag'batlantirish va targ'ibotini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimizning o'tgan yili 6-noyabrdagi ta'lim tizimini isloh qilishga doir farmon va qarorlarida Finlyandiya tajribasini o'rganish masalasi tegishli idoralar, jumladan, Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi oldiga vazifa sifatida qo'yilgan edi. Shunga ko'ra mazkur davlat tajribasi o'rganilmoqda.

Bu sa'y-harakatlar zimmamimizga mamlakatimizdagi ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish samaradorligini oshirish mas'uliyatini yuklamoqda. Bu borada ham ilg'or xorijiy davlatlar, xususan, Finlyandiya tajribasi o'rganilyapti.

Ayni paytda mazkur mamlakatdagi 2341 ta maktabda 560 ming nafar o'quvchi tahsil olyapti. Finlyandiya maktablari o'quv rejasiga ko'ra, to'qqiz yillik haftalik umumiy yuklama 233 soat. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda 246 soatni tashkil etadi. Finlar shundan 42 soatini ona tili va adabiyot faniga ajratadi. Mamlakatimizda ona tili va adabiyot fanining ulushi 2018-yilda 61 soatni tashkil etgan, 2021-yilda esa 51 soatga tushgan.



Ammo o‘zbek tili (davlat tili)ning ulushi 2018-yildagi 16 soatdan bu yil 21 soatga ko‘tarilgan. Bu mamlakatimizda ta‘lim o‘zbek tilidan boshqa tilda olib borilayotgan maktablarda davlat tilini o‘qitishga e‘tibor kuchaytirilganidan dalolat beradi.

Xuddi shunday ko‘rsatkichlar, ya‘ni ona tili va adabiyoti fanining boshqa barcha fanlarga nisbatan ulushi Germaniyada 13,4 foiz, Janubiy Koreyada 17,8 foiz, Yaponiyada 19,1 foiz, Rossiyada 17,5 foiz, Belarusda 13,4 foizni tashkil etishi kuzatildi.

Finlyandiya maktablarida ona tili sifatida fin, shved, sami, sigan tili o‘qitiladi. Mamlakatda ikkita davlat tili mavjud. Ona tili fin tili bo‘lganlar shved tilini, ona tili shved tili bo‘lganlar fin tilini davlat tili sifatida o‘rganadi. Ona tili sami yoki sigan, rus tili bo‘lganlar ham fin yoki shved tilini o‘rganishadi.

Mamlakatimizda umumiy o‘rta ta‘limning yangidan ishlab chiqilayotgan Milliy o‘quv dasturida “Til va adabiyot fanlari ona tili, adabiyot, o‘zbek tili (ta‘lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun), qardosh tillar (qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman), rus tili (ta‘lim rus va o‘zbek tilida olib boriladigan maktablar uchun) o‘quv predmetlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro aloqadorligini ta‘minlaydi”, deb qayd etilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ta‘lim yetti tilda olib boriladi. Jumladan, 2 ming 69 ta maktabda ta‘lim rus, qoraqalpoq, qozoq, tojik, turkman, qirg‘iz tillarida olib boriladi va har bir millat vakillari uchun millatlararo bag‘rikenglik tamoyili asosida zarur sharoitlar yaratilgan. O‘quv jarayoni o‘quvchilarning o‘z ona tilida tashkil etilgan va ushbu maktablarning har birida barcha fanlardan darslik va o‘quv metodik adabiyotlar mavjud.

Fin ta‘lim tizimida o‘quvchilarning til o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish bolalikdan boshlanadi va hayot mobaynida davom etadi. Bu jarayon uyda, maktabda va maktabdan tashqari vaqtlarda rivojlantiriladi. Maktabda til o‘qitishning asosiy prinsipi turli vaziyatlarda tildan foydalanishga o‘rgatish hisoblanadi.

Birinchi-ikkinchi sinflarda ona tili va adabiyotni o‘qitishda o‘quvchilarning individual qobiliyatini hisobga olgan holda ongli yondashish, o‘zini namoyon qilish va muloqot layoqatini, shuningdek, tinglash, gapirish, o‘qish va yozish qobiliyatini rivojlantirish alohida vazifa hisoblanadi.

Uchinchi–oltinchi sinflarda fanning o‘ziga xos maqsadi o‘quvchilarni o‘zini namoyon qilish, o‘zaro ta‘sir o‘tkazish, o‘qish va yozish qobiliyatini oshirishga qaratiladi. Bundan tashqari, ushbu bosqichda matn janrlari doirasi kengayadi. O‘quvchilarga ko‘proq turli matnlarni talqin va tahlil qilish, tuzish va baholash ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Bolalar tanlagan qiziqarli kitoblar va boshqa multimediali matnlar o‘quv jarayonida qo‘llanadi. O‘quvchilar o‘qish orqali dunyoqarashini kengaytiradi. Maktabdan tashqari madaniy va multimedia xilma-xilligi orqali ona tili va adabiyotini o‘rganish imkoniyatidan keng foydalaniladi.

O‘zbekistonda esa o‘quvchiga tilni o‘qitish orqali u bo‘yicha egallanadigan nutqiy faoliyat turlari: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish amallarini har bir sinfda



o'rgatish, mustaqil fikr almasha olish, eshitilgan matnni idrok etish, yozma manbalarni o'qish orqali axborot olish, voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirish malakasini egallash dinamikasi nazarda tutiladi.

Adabiyot — so'z san'ati. Shu sababli ona tilini puxta o'zlashtirmasdan turib, adabiyotning go'zalligi va qudratini anglab bo'lmaydi. Ona tili va adabiyot fani darslari mazmuni o'quvchida so'zga qiziqish va e'tibor hissini muntazam o'stirib borishdan, ularga so'zning ahamiyati, turli matnlarda tutgan o'rnini tushuntirishdan iborat.

O'zbekiston Milliy o'quv dasturida maktab bitiruvchilarida til va adabiyot fanlari bo'yicha rivojlantiriladigan umumiy kompetensiyalar belgilanmoqda. Ularni nutqiy (og'zaki va yozma nutq malakasi, o'qish va tushunish, tinglab tushunish) hamda lingvistik kompetensiyalar (lingvistik malaka: fonetika, imlo, leksikologiya, morfologiya, sintaksis) orqali shakllantirish ko'zda tutilgan.

Finlyandiya maktablarida o'quvchilarning til ko'nikmalari va milliy madaniyati hisobga olinadi. Maktab boshqa ona tilida so'zlashadigan va boshqa madaniyatga mansub bo'lgan o'quvchilar uchun o'rganish hamda muloqot qilish imkoniyatini yaratishi kerak. O'qituvchilar o'z fani bo'yicha fin va shved tilida dars bera olishi lozim. Barcha ko'rsatmalar umumiy o'rta ta'lim uchun o'quv dasturida belgilangan muddao va tamoyillarga muvofiq bo'lishi ko'zda tutiladi. Maqsad o'quvchilarni turli til va madaniyatlarni qadrlashga o'rgatish, ikki va ko'p tillilikni targ'ib qilish va shu orqali o'quvchilarning lingvistik bilimlari va metalingvistik ko'nikmalarini mustahkamlashdan iborat.

Yana bir holat borki, muayyan sinf yoki maktabda ta'lim qaysi tilda olib borilishi ta'lim to'g'risidagi qonun doirasida, ta'lim oluvchilar va ularning ota-onalari qarorlari asosida belgilanadi Biroq zarurat bo'lsa, ona tili va adabiyot bo'yicha darslar hukumat qaroriga muvofiq birlashtirilishi mumkin. Bunday holda o'qituvchilar umumiy o'qitiladigan barcha fanlarning kamida yarmini ona tili sifatida belgilangan tilda o'tishi kerak. Bu jarayonda oila va maktab o'rtasidagi o'zaro kelishuvga amal qilinadi

Ingliz, nemis, fransuz va boshqa tillarni chet tili sifatida o'rganish o'quvchilarda ko'p tillilik, savodxonlik kompetensiyalarini shakllantiradi. Mutaxassislar fikricha, fin tilini juda kam davlatlarda tushunishadi. Shuning uchun finlar dunyo aholisi muloqot qiladigan asosiy chet tillarni yuqori darajada o'rganishni maqsad qilgan. Qolaversa, turli tillarda so'zlashish qobiliyati fanlararo integratsiyani mustahkamlashga yordam beradi.

XULOSA

Umuman olganda, yoshlar vatanimiz O'zbekistonning qanotlaridir. Bugun biz o'qituvchilar oldida ona-tilini o'rgatish to'g'ri va o'rinli hisoblanadi. Bizdan millatimizning bebaho boyligi, xalqimiz tafakkurining tengsiz javohiroti sanalagan o'zbek tilini mukammal o'rgatish, og'zaki va yozma savodxonlikni yuksak bo'lishi talab etilmoqda. Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun bizga Ona-tili va adabiyoti darslarida Finlandiya ta'lim metodlaridan foydalanish samarali foyda beradi. Zero, davr o'qituvchilardan ham, o'quvchilardan ham izlanishni, yangiliklarni o'zlashtirishni talab qilmoqda.



REFERENCES:

1. Шайхисламов, Н. (2020). ТРУДНОСТИ СИНТАКСИЧЕСКОГО АНАЛИЗА: ЗАГАДКИ ИНФИНИТИВА. *Academic research in educational sciences*, (3).
2. Shayxislamov, N. (2020). So'z urg'usining o'zbek va ingliz tillaridagi farqlash vazifasining qisqacha tavsifi. *O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 13-14.
3. Shayxislamov, N. (2020). Когнитив тилшуносликда концепт: "Туй" концепти ва унинг универсал табиати. *O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqotlar va metodlar*, 54-60.
4. Shayxislamov, N. HOZIRGI ZAMON TILSHUNOSLIGIDA TIL VA MADANIYATNING TALQINI. *Scientific Progress*, 7(1), 59-70.
5. Shaykhislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics-Linguoculturology. *Мировая наука*, (8), 33-36.
6. Шайхисламов, Н. (2020). Укувчиларнинг нуций компетенцияларни ривожлантиришда нуткнинг илмий-назарий изохд. *Science and Education*, 1(5).
7. Shayxislamov, N. (2020). Problems of sociolinguistics: status of the language. *O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim*, 3, 279-281.
8. Shaykhislamov, N. (2020). Cognitive Linguistics, the Symbolic and Interactive Functions of Language. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 390-393.
9. Шайхисламов, Н. (2020). Зооним компонентли метафораларнинг антропоцентрик таъкик этишда гендер жиҳдтлар. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 304-309.
10. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish. *O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim masalalari: muammo vayechimlar*, (3), 71-73.
11. Shayxislamov, N. (2020). Nutqning paralingvistik va ekstralingvistik vositalari. *Узбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар*, 36-37.
12. Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Shofqorov, A. M. (2020). RASMIY HujjatlAR MATNINING LEKSIK XUSISIYATLARI VA ULARNING TARJIMADA BERILISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
13. Shofqorov, A. M., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Alimova, E. B. (2020). O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI MAQOLLARDA "DO'STLIK" KONSEPTI IFODALANISHI. *Science and Education*, 1(Special Issue 3).
14. Шайхисламов, Н. (2020). Синтаксисни морфология билан интегратив ургатиш. *Нутц маданияти ва узбек тилшунослигининг долзарб муаммолари*, 383385.